



HANDALAKNING ISTIQBOLLI MAHALLIY NAVLARI

¹I.O.Beknazarov

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti,

²M.X.Aramov

Termiz agrotaxnologiyalar va innovatsiyon rivojlanish inistituti
professori,

³J.A.Yusupov

Termiz agrotaxnologiyalar va innovatsiyon rivojlanish inistituti
talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7409326>

ARTICLE INFO

Received: 27th November 2022

Accepted: 05th December 2022

Online: 07th December 2022

KEY WORDS

ABSTRACT

Dunyoda sodir bo'layotgan oziq-ovqat muammosini bartaraf etish, aholi sonining ortib borishi sababli mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga, ochiq dalalarda qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli nav va duragaylarini tanlash yaratish hamda yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dunyoda sodir bo'layotgan oziq-ovqat muammosini bartaraf etish, aholi sonining ortib borishi sababli mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga, ochiq dalalarda qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli nav va duragaylarini tanlash yaratish hamda yetishtirish texnologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu o'rinda poliz ekinlari, jumladan handalak yetishtirishni ko'paytirish muhim o'rin tutadi. Poliz ekinlaridan qovoq uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ega. Handalak ekinlarini yetishtirish esa erta bahorda poliz mahsulotlari taqchil vaqtda ularga bo'lgan talabni qondiradi.

O'zbekistonda 5 ta qovun vohalari mavjud bo'lib (2), ularning har biri o'ziga xos qovun nav va shakllariga ega. Har bir voha o'ziga xos xandalak nav va shakllariga ham ega.

Janubiy (Surxondaryo va Qashqadaryo) voha qovunlari, jumladan handalaklarini o'rganish bo'yicha keyingi 30-40 yil

davomida tadqiqotlar olib borilmagan. Shuni hisobga olib 2021-2022 yillarda SPEvaKITI Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida respublikamizning turli mintaqalaridan keltirilgan 40 dan ortiq handalak nav namunalari o'rganildi.

Tadqiqot ob'ekti va uslubi. Tadqiqot ob'ekti bo'lib respublikamizning turli viloyatlaridan keltirilgan 40 dan ortiq handalak nav namunalari xizmat qildi. Tajriba qaytariqsiz olib borildi. Hisob bo'lmachasi maydoni 14,0 m². Bo'lmacha 2 qatorli va undagi o'simliklar soni 20 ta. Qiyosiy Kichkintoy navi har 10 ta nav namunasidan keyin joylashtirildi. Tadqiqotlar "Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tqazish metodikasi" (Toshkent, 2002) (4), Рекомендации по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (Л.,1982) (5), Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве (М.,1992) (6) kabi uslubiy ko'rsatmalar asosida olib borildi. Urug'lar 7 mart kuni issiqxonalarda



tuvakchalarga ekildi. Ko'chatlar ochiq dalaga 7 aprel kuni ko'chirib o'tqazildi.

Tadqiqot natijalari.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy, yani issiq hududi bo'lganligi uchun bu yerda handalakni erta muddatda yetishtirish uchun qulay ob-havo sharoiti

mavjud. O'tkazilgan tajribalarda ko'chat usulida yetishtirilganda mahalliy handalak nav namunalari eng istiqbolli deb topilgan Boboki, Erta pishar kichik handalak, Hovdak, Bandixon 2021, Eti qizil handalak navlari ajratib olindi (1-jadval).

1-jadval

Handalak nav namunalari rivojlanish fazalarining davomiyligi, 2021-2022 yy.							
t/ r	Nav namunalari	Ekish-unib chiqishi	Unib chiqqandan, kyn				
			chin barg chiqishi-gacha	otalik gullarini ng gullashi gacha	onalik gullarini ng gullashi gacha	Meva hosil bo'lishi-gacha	Meva pishishi-gacha
1	Kichkintoy, st.	9	16	50	63	68	91
2	Bandixon 2021	8	19	55	59	64	94
3	Hovdak	6	16	58	60	64	90
4	Boboki		16	50	55	58	88
5	Erta pishar kichik handalak	10	20	51	55	59	85
6	Eti qizil handalak	7	14	50	64	68	91

Tajribada handalak urug'lari ekishdan yoppasiga unib chiqqunicha bo'lgan vaqt qiyosiy nav Kichkintoyda 9 kunni, Erta pishar kichik handalakda 10 kunni, Boboki navida 7 kunni, Bandixon 2021 navida 8 kunni, Eti qizil handalakda 7 kunni, Hovdak navida 6 kunni tashkil etdi.

Unib chiqqandan yoppasiga chin barg chiqarishi qiyosiy, Boboki, Hovdak navlarida 16 kunda, Erta pishar kichik handalakda 20 kunda, Eti qizil handalakda 14 kunda, Bandixon 2021 navida 19 kunda kuzatildi.

Unib chiqqandan otalik gullari yoppasiga gullashi qiyosiy hamda Boboki, Eti qizil handalak navlarida 50 kunni, Erta pishar kichik handalakda 51 kunni, Hovdak 58 kunni, Bandixon 2021 navida 55 kunni tashkil etdi. Handalak o'simligida otalik

gullari onalik gullaridan oldin gullaydi. Otalik gullarida changchilari yetilgandan so'ng onalik gullari gullaydi. Ko'chatlarning unib chiqqandan onalik gullarining yoppasiga gullashi qiyosiy navda 63 kunni, Erta pishar kichik handalak, Boboki navlarida 55 kunni, Hovdak navida 60 kunni, Bandixon 2021 navida 59 kunni tashkil etdi. Onalik gullari chanlanib meva hosil qilish vaqti bir qancha kun vaqt zarur bo'ladi. Yuqoridagi navlarda onalik gullari gullagandan so'ng meva hosil qilishi uchun uch kundan besh kungacha vaqt kerak bo'ldi. Unib chiqqandan yoppasiga meva hosil bo'lgunicha qiyosiy navda 68 kun, Erta pishar kichik handalakda 59 kun, Boboki navida 58 kun, Eti qizil handalakda 68 kun, Hovdak, Bandixon 2021 navlarida 64 kun kerak bo'ldi. Handalak ekini ertapishar



poliz ekini hisoblanadi. Bu ekin o'zining ertapisharligi, hushbo'y hidi, mazali va vitamining boyligi sababli xalqimiz erta bahorda istemol qiladi. Bu navlar unib chiqqandan yoppasiga meva pishib yetilguncha bo'lginicha qiyosiy, Eti qizil handalak navlarida 91 kunni, Erta pishar

kichik handalakda 85 kunni, Bobokida 88 kunni, Hovdakda 90 kunni, Bandixon 2021 navida 94 kunni tashkil etdi. Ushbu navlarda o'suv davrining davomiyligi jihatidan ko'p farq qilmadi. Ammo navlar biometrik o'lchovlarida farqlarni ko'rish mumkin(2-jadval).

Handalakning ba'zi biometrik ko'rsatkichlari, 2021-2022 y.				
Nav namunalari	Asosiy poya uzunligi, sm	Yon shoxlar uzunligi, sm	Umumiy uzunligi,sm	Yon shoxlar soni, dona
Kichkintoy (st)	152	351	502	5
Bandixon 2021	194	412	606	7
Hovdak	200	405	605	8
Boboki	180	404	584	7
Erta pishar kichik handalak	171	369	540	7
Eti qizil handalak	155	362	517	5

2-jadval

Qiyosiy Kichkintoy navida asosiy poya uzunligi 152 sm ni, yon shoxlar uzunligi 351 sm, poyaning umumiy uzunligi 502 sm ni, yon shoxlar soni 5 tani tashkil etdi. Istiqbolli deb topilgan mahalliy handalak navlarida bu ko'rsatkichlar qiyosiy navdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Bandixon 2021 navida asosiy poya uzunligi 194 sm, yonshoxlar uzunligi 412 sm, umumiy poya uzunligi 606 sm bo'lib, bu qiyosiy navga nisbatan muvofiq ravishda 42 sm; 54 sm; 104 sm uzun bo'ldi.

Hovdak navida asosiy poya uzunligi 200 sm, yonshoxlar uzunligi 412 sm, umumiy poya uzunligi 605 sm bo'lib, bu qiyosiy navga nisbatan muvofiq ravishda 48 sm;

61 sm; 103 sm uzun bo'ldi. Xuddi shunday holat boshqa navlarda ham kuzatildi.

Eng kam yonshoxlar soni qiyosiy Kichkintoy va Eti qizil handalak navlarida kuzatildi va ularning soni 5 taga teng bo'ldi. Qolgan navlarda yon shoxlar soni qiyosiy navga nisbatan 2-3 taga ko'p bo'ldi.

Tatqiqot natijalarida ertapishar, serhosil, tavarbobliligi jihatidan yuqoridagi handalak navlari ajratib olindi. Mevalari shakli yassi, yumoloq ko'rinishda bo'ldi. Bitta o'simlikdagi mevalar soni qiyosiy hamda Eti qizil handalak navlarida 3,2 ta, Boboki navida 3,1 ta, Erta pishar kichik handalakda - 3,7 ta, Hovdakda - 2,4 ta, Bandixon 2021 navida 2,8 ta ni tashkil etdi, 3-jadval.

Istiqbolli mahalliy handalak navlari mevasining vazni va hosildorligi, 2021-2022						
t/r	Nav namunalari	Mevaning o'rtacha		Hosildorlik		
		soni, dona/ o'simlik	vazni, kg	t/ga	Nazoratga nisbatan, %	Tovarbo hosil ulushi,%
1	Kichkintoy , st.	3,2	1,0	44,3	100	92
2	Boboki	3,1	1,6	70,8	160,0	96
3	Erta pishar kichik handalak	3,7	1,2	63,4	143,0	90
4	Hovdak	2,4	1,6	56,5	127,5	87
5	Bandixon 2021	2,8	1,4	55,9	126,0	94
6	Eti qizil handalak	3,2	1,2	54,8	124,0	95

3-jadval



1-rasm. Erta pishar kichik handalak navning pishib yetilgan mevasi ko'rinishi

Eng kichik mevalar qiyosiy Kichkintoy navida kuzatildi va u 1 kg ni tashkil etdi. Eng katta mevalar esa Bandixon (1,4 kg), Boboki (1,6 kg) va Xovdak (1,6 kg) navlarida kuzatildi. Qiyosiy navga nisbatan biroz katta mevalar Ertapishar kichik handalak (1,2 kg) va Eti qizil handalak (1,2 kg) navlarida qayd etildi. Demak meva vazni bo'yicha o'rganilgan nav namunalari istiqbolli bo'lib hisoblanadi.

Eng muhim ko'rsatgichlardan biri hosildorlik o'rganilgan mahalliy handalak navlarida yuqori darajada bo'ldi. Eng yuqori hosildorlik Boboki va Erta pishar kichik handalak navlarida kuzatildi va u 63,4-70,8 t/ga ni tashkil etdi. Bu qiyosiy navga nisbatan 43-60% yuqori bo'ldi. Boshqa o'rganilgan Hovdak, Bandixon 2021, Eti qizil handalak navlarida ham hosildorlik 54,8-56,5 t/ga ga teng bo'ldi va qiyosiy navdan 24,0-27,5 % yuqori bo'ldi.



Eng yuqori tovarbop hosil Boboki (96%), Eti qizil handalak (95%), Bandixon 2021 (94%) navlarida kuzatildi. Ushbu navlarda tovarbop hosil qiyosiy navga nisbatan 2-4% ga yuqori bo'ldi. Eng past tovarbop hosil Hovdak va Erta pishar kichik handalak navlarida kuzatildi va bu ko'rsatgich ularda 87-90% ni tashkil etdi.

Hosildorligi va boshqa qimmatli xo'jalik belgilari majmuasini o'zida

mujassamlashtirgan Boboki, Eti qizil handalak, Hovdak, Bandixon 2021, Ertapishar kichik handalak kabi mahalliy handalak navlari seleksiya ishlari uchun qimmatli boshlang'ich manba bo'lishi bilan bir qatorda Surxondaryo viloyati sharoitida ishlab chiqarishda, dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirishga tavsiya etiladi.



2-rasm. Bandixon 2021 navning pishib yetilgan mevasi ko'rinishi

References:

1. Bo'riyev X.Ch., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. – T.: Mehnat, 2000.
2. Mavlanova R., Rustamov A., Xakimov R., Xakimov A., Turdiyeva M., Padulosi S. O'zbekistan qovunlari. – Toshkent, 2005.
3. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. – Toshkent, 2020.
4. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. B.J.Azimov, B.B.Azimov. Toshkent-2002. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.
5. Рекомендации по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (Л.,1982),
6. Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве (М.,1992)